

Sankt-Peterburgdan Samarqand, Farg'ona, Termiz va Urganchga repatriatsiya reyslari

2020 29 Sentabr

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga Vatanga qaytib kelishida qulay sharoitlar yaratish maqsadida «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasi Sankt-Peterburgdan Samarqand, Farg'ona, Termiz va Urganch shaharlariga quyidagi jadval bo'yicha repatriatsiya qatnovlarini rejalashtirgan (mahalliy vaqt ko'rsatilgan):

Yo'nalish	Qatnov bajariladigan kunlar	Reys raqami	Uchish/kelish vaqti	
Sankt-Peterburg - Samarqand	5 oktyabr	HY3640	12:40/19:30	Chipta sotib olish
Sankt-Peterburg - Farg'ona	6 oktyabr	HY3636	01:40/08:45	Chipta sotib olish
Sankt-Peterburg - Termiz	6 oktyabr	HY3712	15:20/22:30	Chipta sotib olish
Sankt-Peterburg - Urganch	7 oktyabr	HY3638	04:55/11:15	Chipta sotib olish

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga parvoz qilish faqat PCR tekshiruvdan o'tganligi to'g'risidagi (qatnov jo'nashidan oldin kamida 72 soat amal qiluvchi) ma'lumotnoma taqdim etilgan holda ruxsat berilishiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. PCR ma'lumotnomasi bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniya qatnovlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, AJ mobil ilovasi orqali, shuningdek, "Uzbekistan Airways" AJning eng yaqin sotuv ofislaridan yoki mintaqangizdagi aviakompaniya tashuvlarini sotish agentliklaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan mamnun bo'lamiz!